

TIBBIYOT SOHASIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNI O'RNI VA AHAMIYATI

Raximov Shaxriyor Azamatovich

SamDTU stomatologiya fakulteti 208-guruh talabasi

Daminova Marjona Iskandar qizi

SamDTU stomatologiya fakulteti 205-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tibbiyot va psixologiya fanlarining rivojlanish tarixi, o'zaro aloqadorligi, tibbiyot psixologiyasining tarkibiy qismlari, tibbiyotda psixologik bilimlarning o'rni, bugungi kunda inson ruhiyatida tibbiyot psixologiyasining o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: psixosomatika, tibbiyot, psixokorreksiya, psixiatriya, psixoterapiya, operatsiya, miokard infarkti, qand kasalligi.

Psixologiyaning tibbiy amaliyotga kiritilishining boshlanishi XVIII asrda, Pinel psixiatriya shifoxonasini boshqarishga shifokor, ma'mur va psixologni kiritish zarurligi haqida yozgan paytda paydo bo'lgan. XIX asrda olimlar somatik va ruhiy kasal odamlarning psixikasini faol o'rghanishdi va aqliy faoliyat va xatti-harakatlarning murakkab buzilishlarini tahlil qilish uchun psixologiya yordamiga muhtoj edilar. XX asr boshlarida tibbiyot psixologiyasi mustaqil ilmiy fan sifatida vujudga keldi. XX asrning 2-yarmida ko'plab muhim asarlar paydo bo'lgach, tibbiy psixologiyadan faoliyat sohasi kengaydi, u tashkiliy jihatdan ajralib tura boshladi. Hozirgi davrda tibbiy psixologiyani ko'proq klinik psixologiya deb atashadi, uning ahamiyati, imkoniyatlari va talabi ortib bormoqda.

Tibbiyot psixologiyasi - umumiy psixologiyaning tarkibiy qismi bo'lib kasalliklarning kelib chiqishida psixikaning o'rni va ahamiyatini o'rghanadi. Tibbiyot psixologiyasi, tom ma'noda, bemor psixologiyasini o'rGANUVchi fandir. Lekin bu ta'rif uning barcha imkoniyatlarini qamrab bera olmaydi, albatta. Chunki u sog'lom kishilarda kasallikni keltirib chiqaruvchi barcha tashqi va ichki omillarni o'rGANADI hamda ularning sabablarini izlaydi. Tibbiyot psixologiyasi chegara bilmas, keng qamrovli fandir. U uzoq tarixga ega bo'lib, o'zining rivojlanish bosqichida bir nechta davrlarni bosib o'tdi.

Tibbiyot psixologiyasining maqsadi bemorga uning shaxsiga oid individual xususiyatlarini hisobga olgan holda shubhasiz terapevtik samara beradigan usullarni topib yondoshishdir. Tibbiyot psixologiyasi quyidagilarni o‘rganadi:

- tibbiy xodimlar (vrach, hamshira) va bemorlar orasidagi o‘zaro munosabatlami
- odamning psixologik shakllanish bosqichlarini (bolalik, o‘smirlilik, katta va qarilik davri psixologiyasini)
- temperament, xarakter va shaxs muammolarini
- deontologiya va etika tamoyillarini
- psixogigiyena va psixoprofilaktika muammolarini
- psixodiagnostika (psixometriya) va psixoterapiya (psixokorreksiya) tamoyillarini
- tibbiy-psixologik ekspertiza muammolarini.

Klinik psixologiya turli kasalliklarga yondashish xususiyatlariga ko‘ra quyidagi bo‘limlarga bo‘lingan:

8. patopsixologiya,
9. neyropsixologiya
10. somatopsixologiya (psixosomatika)
11. psixofarmakologiya
12. deontologik psixologiya
13. psixoterapiya

Psixopatologiya avvalo ruxiy kasalliklarda, shuningdek boshqa kasalliklarda ham psixikada ro‘y beradigan buzilgan va saqlanib qolgan funktsiyalarni, bemorlarning holatini tekshirishga imkon beradi, psixodiagnostikaning turli usullarini ishlab chiqadi va amaliyotga tatbiq etadi.

Neyropsixologiya miyaning mahalliy lezyonlari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan turli ruhiy kasalliklarni erta va aniq tashxislash usullarini ishlab chiqadi va amaliyotga tatbiq etadi, bemorlarni tiklash usullari bilan shug‘ullanadi.

Somatika va psixika o‘rtasidagi bog‘liqlik uzoq vaqt oldin isbotlangan-somatopsixologiya yoki psixosomatika turli kasalliklarning kelib chiqishi bilan bemorning psixikasi, shaxsiyati o‘rtasidagi ikki tomonlama bog‘liqlikni o‘rganadi.

Tibbiy psixologiyaning bir bo‘limi sifatida ba’zan psixofarmakologiya ko‘rib chiqiladi, u dorivor moddalarining odamning aqliy faoliyatiga ta’sirini, bu moddalar ta’sirida yuzaga keladigan ruhiy o‘zgarishlarni o‘rganadi.

Deontologik psixologiya - bemorlar bilan ishslash psixologiyasi tibbiy faoliyat muammolari va bemorlarga g‘amxo‘rlik qilishdagi psixologik munosabatlar, ushbu

faoliyat jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarda bemorlarga ta'sir qilish jarayonida tibbiyot xodimlarining xatti-harakatlari, muammolari bilan shug'ullanadi.

Klinik psixologiya profilaktika, turli somatik va ruhiy kasalliklarga chalingan bemorlarni reabilitatsiya qilish, aqliy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va o'smirlarni psixokorreksiya qilish, turli xil ekspertizalarda muhim o'rinn tutadi. Sohaning eng muhim yo'naliшlaridan biri psixoterapiya, bemorning psixologik farovonligiga erishish uchun unga psixologik ta'sir ko'rsatish usullaridan foydalanishdir.

Tibbiyot psixologiyasini boshqa tibbiyot fanlaridan ajratib o'rganish xato bo'lar edi. Har qanday kasallik asosiy davolash choralaridan tashqari, bemorga ruhiy ta'sir qilishni ham taqozo etadi. Masalan, operatsiyaga tayyorlanayotgan bemorni jarroh yaxshi so'zlar bilan tinchlantiradi, operatsiyaning muvaffaqiyatli o'tishiga ishontiradi, operatsiyadan keyin sog'ayib oyoqqa turib ketishiga unda ishonch uyg'otadi. Operatsiyadan keyin ham bemor bilan suhbatlashish asosan, uning ruhini ko'tarishga, asabini tinchlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu ish bilan albatta, jarrohning o'zi va boshqa tibbiyot xodimlari shug'ullanadi.

Ma'lumki, qattiq hissiy zo'riqishdan keyin qand kasalligi, xafaqon kasalligi, miokard infarkti, insult kabi og'ir kasalliklar rivojlanadi. Hatto oshqozon-ichak yara kasalligi, qon kasalliklari ba'zan ruhiy zo'riqishlardan keyin paydo bo'ladi. Odam organizmida sodir bo'ladigan har qanday kasalliklarda ruhiy ta'sir albatta ishtirok etadi. Bu esa har bir vrachning psixologiyani mukammal egallashini talab qiladi.

XULOSA

Tibbiyot psixologiyasi barcha tabiiy va aniq fanlar ta'siri ostida rivojlandi va alohida fan sifatida butun dunyoda tan olindi. Bugungi kunda rivojlanayotgan va organizmda vujudga kelayotgan ko'plab kasalliklarning o'chog'i ruhiyat bilan bevosita bog'liq ekanligini guvohi bo'lib turibmiz, hattoki, somatik kasalliklarda ham. Bunday bemorlar bilan ishlash va kasaliklarning oldini olishni o'rganishda tibbiyot psixologiyasining o'rni muhim va bu fanga bo'lgan ehtiyoj va talabning ortishiga sabab bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1) Vasila Karimova “Salomatlik psixologiyasi”. -T .: 2005.
- 2) Ibodullayev Z.R. “Tibbiyot psixologiyasi”. Darslik. -T.: 2008, 378
- 3) Ibodullayev Z .R. “O‘zbekistonda tibbiyot psixologiyasini o‘qitish kontseptsiyasi”. ”Patologiya jurnali”, 2009. №.1, 31-33
- 4) Olimov X.O., Olimov U.X. “Psixiatriya klinikasining muqaddimasi”. -T.: 1997.
- 5) Raximova R.B., Ahmadova S.B., Quvondiqov D.O‘., “ Tibbiyot sohasida ijtimoiy psixologiya o‘rni” 2023. №.9, 1074-1077
- 6) www.natlib.uz
- 7) www.fikr.uz